VOYAGA YETMAGANLAR ÖRTASIDA HUQUQBUZARLIKNING OLDINI OLISH

Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti o'qituvchisi Muxammadiyeva Sevara Bahodirovna va talabalari Ochilova Dilso'z va Tursunpo'latova Nilufar

Annotatsiya

Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar oʻrtasida huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari, ularning ijtimoiy-psixologik omillari hamda oldini olishning samarali yoʻllari tahlil qilinadi. Shuningdek, oila, taʼlim muassasasi va jamiyat hamkorligining ahamiyati yoritilib, ijtimoiy pedagogning bu jarayondagi oʻrni alohida koʻrsatib beriladi.

Maqolada huquqbuzarliklarning profilaktikasi boʻyicha zamonaviy yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit soʻzlar:

voyaga yetmaganlar, huquqbuzarlik, profilaktika, ijtimoiy pedagogika, yoshlar tarbiyasi, oila va maktab hamkorligi, ijtimoiy muhit, deviant xulq-atvor, huquqiy savodxonlik, ijtimoiy nazorat, psixologik omillar, tarbiya jarayoni

Kirish

Hozirgi globallashuv jarayonida jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy oʻzgarishlar yoshlar tarbiyasiga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. Ayniqsa, voyaga yetmaganlar oʻrtasida huquqbuzarlik holatlarining uchrashi dolzarb muammolardan biri boʻlib qolmoqda.

Bu holat nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida ham alohida e’tibor talab etadi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning asosiy sabablari qatoriga oiladagi nosog‘lom muhit, yetarli nazoratning yo‘qligi, tarbiyadagi kamchiliklar, tengdoshlar ta’siri hamda axborot oqimining salbiy ta’siri kiradi. Shu bois ushbu muammoni bartaraf etishda kompleks yondashuv zarur hisoblanadi.

Mazkur jarayonda ijtimoiy pedagogning o‘rni beqiyos bo‘lib, u nafaqat muammoni aniqlash, balki uning oldini olish, profilaktika ishlarini tashkil etish va voyaga yetmaganlarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, oila, maktab va jamiyat hamkorligini mustahkamlash orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Jinoyatchilikka qarshi kurashishida uning profilaktikasi katta rol uynaydi. O‘zbekistonda turli bosqich ta'lim muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasida ushbu muammoga kuchli e'tiborb yerilgan1. Voyaga yetmagan o‘quvchilar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish yuzasidan olib borilgan chora-tadbirlar o‘z samarali ta'sirini ko‘rsatdi.

1993-yilda 1992-yilga nisbatan jinoyat sodir etishda qatnashgan o‘smirlar o‘rtasida hunar-texnika bilim yurti o‘quvchilari soni 5 foizga qisqardi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Namangan viloyatlari va Toshkent shahri umumiy ta'lim maktablarida huquqbuzarlik bilan ro‘yxatga olingan o‘quvchilari sonikamaydi.

O‘zbekiston Respuplikasi Jinoyat kodeksi oltinchi bo‘limi XV-XVI boblarida “Voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari” belgilangan. Bu boblarda voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jazo tizimi, jazo tayinlash qoidalari, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish hollari aks ettirilgan.

Unda koʻrsatilgan normalar jinoiy javobgarlikning umumiy qoidalarini oʻz ichiga olishi bilan birga, kodeksning 7-moddasida koʻrsatilgan insonparvarlik printsipiga muvofiq, voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilganda ularga nisbatan jazo turlarining ancha takomillashganligi, sud ularga jazo tayinlashda oʻsmirning ruhiy rivojlanganlik darajasi,

turmush sharoiti va tarbiyasini, sogʻligini, sodir etgan jinoyatining sabablarini, katta yoshdagi kishilar va vaziyatning jinoyat sodir etilishidagi oʻrnini e'tiborga olib, javobgarlik yoki jazodan ozod qilishda unga nisbatan davlat tomonidan beriladigan bir qancha engilliklarda ifodalangan.

Jinoyat kodeksi 17-modasi, 5-qismiga muvofiq oʻn sakkiz yoshga toʻlgunga qadar jinoyat sodir etgan shaxslar umumiy qoidalarga asosan va Jinoyat kodesining oltinchi boʻlimida nazarda tutilgan xususiyatlar hisobga olingan holda javobgarlikka tortiladilar.

Jinoyat kodeksi Maxsus qismining 163 ta moddasida voyaga yetmaganlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Voyaga yetmagan shaxs deganda, jinoyat sodir etgunga qadar 16 yoshga toʻlgan, ammo 18 yoshga toʻlmagan shaxs tushuniladi.

Umumiy qoidaga muvofiq, 16 yoshga toʻlgan, aqli raso shaxslar jinoyat sub'ekti yoshiga yetgan hisoblanadilar. Ba'zi jinoyatlar uchun sub'ekt yoshi 14 yosh qilib belgilangan. Javobgarlikni ogʻirlashtiruvchi holatlarda qasddan odam oʻldirganlik jinoyati uchun sub'ekt yoshi 13 yosh etib belgilangan.

Hozirgi davrda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi toʻgʻrisida yetarli darajada statistik materiallar toʻplangan va uni tahlil qilishning usullari ishlab chiqilgan. Bularning barchasi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ahvolini toʻgʻri baholash, undaga miqdor va sifat koʻrsatkichlaridagi (strukturasi va boshqa koʻrsatkichlarini ham) oʻzgarishlarni bilish imkonini beradi.

Ayrim vaqtlarda alohida hududlardagi jinoyatchilikning miqdor va sifat koʻrsatkichlarida, shuningdek, jinoyat sodir etuvchi shaxslar va turli xil jinoyatlar tarkibida aniq boʻlmagan ma'lumotlar boʻlishiga qaramay voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining aniq ahvolini bilish imkoniyati bor.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining sabablari

Voyaga yetmaganlar oʻrtasida huquqbuzarliklarning yuzaga kelishiga bir qator omillar sabab boʻladi:

Ijtimoiy omillar – oilaning moddiy ahvoli, muhitning nosogʻlomligi

Psixologik omillar – eʼtiborsizlik, mehr yetishmasligi, stress

Pedagogik omillar – notoʻgʻri tarbiya, maktabdagi muammolar

Axborot omillari – internet va ijtimoiy tarmoqlarning salbiy taʼsiri

Tadqiqotlarga koʻra, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining katta qismi aynan oilaviy muhit bilan bogʻliq hisoblanadi[1].

Ijtimoiy pedagog voyaga yetmaganlar bilan ishlashda muhim oʻrin egallaydi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

muammoli bolalarni aniqlash

profilaktik suhbatlar oʻtkazish

oila bilan hamkorlik qilish

bolalarni ijtimoiy moslashtirish

Ijtimoiy pedagog nafaqat muammoni aniqlaydi, balki uni bartaraf etish choralarini ham ishlab chiqadi[2].

Hozirgi davrda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi to‘g‘risida yetarli darajada statistik materiallar to‘plangan va uni tahlil qilishning usullari ishlab chiqilgan.

Bularning barchasi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ahvolini to‘g‘ri baholash, undaga miqdor va sifat ko‘rsatkichlaridagi (strukturasi va boshqa ko‘rsatkichlarini ham) o‘zgarishlarni bilish imkonini beradi.

Ayrim vaqtlarda alohida hududlardagi jinoyatchilikning miqdor va sifat ko‘rsatkichlarida, shuningdek, jinoyat sodir etuvchi shaxslar va turli xil jinoyatlar tarkibida aniq bo‘lmagan ma'lumotlar bo‘lishiga qaramay voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining aniq ahvolini bilish imkoniyati bor.

1999 yili 290 nafar ota-onalar farzandlari tarbiyasiga salbiy ta'sir ko‘rsatganliklari uchun ichki ishlar idoralarida hisobga olingan.

Ayrim hollarda IIB V YeN xodimlari o‘zlarining xizmat vazifalariga sovuqqonlik bilan qarab, maktabga bormay yurganb olalarga nisbatan tegishli choralar ko‘rmagan

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining Bolalar huquqlari bo‘yicha komissarining maslahatchisi T.Yu.Teleginaning ta'kidlashicha, qayta-qayta jinoyat sodir etgan har ikkinchi voyaga etmagan bola ota-onasi spirtli ichimliklarni iste’mol qiladigan disfunktsiyali oilada yashaydi[1

]Huquqbuzarliklar profilaktikasi ─ huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi.[5]

Umumtaʼlim maktablarida huquqbuzarlik profilaktikasi tadbirlari ikki shaklda amalga oshiriladi: umumiy (jamoaviy) profilaktika, yakka tartibdagi profilaktika.

Umumiy (jamoaviy) profilaktika – bu oʻquvchilarning umumiy jamoasiga qaratilgan, huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini bartaraf etish, oʻquvchilarning huquqiy ongini oʻstirib, qonunlarga rioya etish ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora tadbirlar majmuidir.

Yakka tartibdagi profilaktika ishi — ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda boʻlgan voyaga yetmaganlar va oilalarni oʻz vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa gʻayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyatdir.[3]

Ijtimoiy va pedagogik xizmatlarning oʻzaro taʼsirini oʻrganib, profilaktika faoliyatini tizimli tashkil etishda asosiy uchta darajani koʻrsatishimiz mumkin:

1.Mikro daraja: bu - ijtimoiy pedagog – oʻquvchi‖ ijtimoiy makoni darajasida belgilanishi mumkin.

2. Mezo daraja: uning ijtimoiy makonini quyidagicha aniqlash mumkin: - ijtimoiy pedagog - oʻspirin - oila‖.

3. Makro daraja: uni ―oila – oʻspirin – ijtimoiy pedagog – jamiyat deb koʻrsatish mumkin.8[4]

Foydalanilgan adabiyotlar

Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.

Xasanboyev J., Toʻxtayev A. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent, 2016.

Oʻzbekiston Respublikasi “Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonuni, 2008.

Qurbonov Sh. Pedagogika nazariyasi. Toshkent, 2019.

Internet manba: www.lex.uz